



IMOM AL-BUXORIY HADISLARIDA PSIXOLOGIK G'OYALAR

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi

Bahodirova Shahnoza Rustam qizi

E-mail: srustamova055@gmail.com

Talipova Feruza Tairovna

Alfraganus universiteti

Psixologiya kafedrası v.b

dotsenti psixologiya fanlari bo'yicha (PhD)

Annotyatsiya. Ushbu maqolada Imom Al- Buxoriyning Al-jome as- Sahih asarida keltirilgan hadislar psixologik jihatdan nazariy tahlil qilingan. Hadislar inso ruhiyati, hissiyoti, xulq- atvor va ijtimoiy va psixologik munosabatlar bilan bog'liq jihatlari o'rganilgan. Shuningdek, insondagi g'azabni boshqarish, sabr, shukr , irodaviylik, hissiy barqarorlik va stressni yengish kabi psixologik xususiyatlar yoritilgan. Maqolada hadislarining zamonaviy psixologiya bilan uyg'unligi, ularning shaxs tarbiyasidagi o'rni tahlil etiladi.

Kalit so'zlar; Axloq, hissiyot, ruhiyat, hadis, g'azab, shaxs rivojlanishi, psixologik barqarorlik va irodaviylik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИДЕИ В ХАДИСАХ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ

Аннотация. В данной статье теоретически проанализированы хадисы, приведённые Имамом аль-Бухари в сборнике «Аль-Джами ас-Сахих», с психологической точки зрения. Исследованы аспекты хадисов, связанные с человеческой психикой, эмоциями, поведением, а также социальными и



психологическими отношениями. Особое внимание уделено таким психологическим аспектам, как управление гневом, терпение, благодарность, сила воли, эмоциональная устойчивость и преодоление стресса. В статье рассматривается гармония хадисов с современной психологией и их роль в воспитании личности.

Ключевые слова: мораль, эмоции, психика, хадис, гнев, развитие личности, психологическая устойчивость, сила воли.

PSYCHOLOGICAL CONCEPTS IN THE HADITHS OF IMAM AL-BUKHARI

Annotation This article provides a theoretical analysis of the hadiths presented by Imam al-Bukhari in his collection Al-Jami' al-Sahih from a psychological perspective. The study explores aspects of the hadiths related to the human psyche, emotions, behavior, and social-psychological relationships. Particular attention is given to psychological qualities such as anger management, patience, gratitude, willpower, emotional stability, and coping with stress. The article also highlights the harmony between the hadiths and modern psychology, as well as their role in personal development and moral education.

Keywords: morality, emotions, psyche, hadith, anger, personal development, psychological stability, willpower.

Kirish. Insoniyat tarixida insonning ruhiy holati, ichki dunyosini pokligi va uning axloqiy jarayonlari masalalari borasida e'tibor bergan dastlabki manba bu islom ta'limotidir. Shulardan eng buyuk manbalardan biri U nafaqat fiqh, aqida yoki ibodat masalalarini, balki inson ruhiyati, emotsional holati va xulq-atvorini shakllantiruvchi hadislarni ham jamlagan.



Bizga ma'lumki psixologiya avvalo sharqda paydo bo'lib ilmun nafs deb yurtilgan hozirga kunga kelib bu so';z psixologiya deb yurtilayapti. Zamonaviy psixologiya ham hozirgi kunda psixologik xususiyatlar , emotsional holatlarga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Shunday ekan, Imom al-Buxoriy hadislarini psixologik nuqtayi nazardan o'rganish — islomiy va ilmiy yondashuvlarni birlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Imom Buxoriy o'zining hadislarida inson ruhiyatiga oid bir qancha g'oyalari mavjud . Uning hadislarida inson ruhiyatini shakllantiruvchi sabr, g'azabni tiyish, mehr-shavqat, sabr, va o'z-o'zini nazorat qilish kabilar alohida o'rin tutadi.

Masalan Payg'ambarimiz (s.a.v) dan rivoyat qilinadi;

Kuchli kishi kurashda g'alaba qilgan emas, balki g'azab paytida o'zini tuta olgan kishidir.”

(Sahih al-Buxoriy, Adab, 76-bob.)

Bu hadis zamonaviy psixologiyada emosional o'zini boshqarish tamoyiliga to'la mos keladi. Ya'ni insonning o'z his-tuyg'ularini nazorat qila bilishi — ruhiy sog'lomlikning eng muhim belgisidir. Insonda g'azab kelsa tinchgina o'tirib olsin agar g'azab bosilmasa yotib olsin , shundan keyin ham g'azab qolmasa tahorat olib ibodat qilsin deyilgan.

Sabr va shukr — ruhiy barqarorlik asoslari

Imom al-Buxoriy hadislarida sabr va shukr ruhiy muvozanatni ta'minlovchi ikki asosiy fazilat sifatida tilga olinadi.

Sabr — bu faqat toqat yoki chidash emas, balki insonning sinovlarga nisbatan ijobiy qarashi va ijobiy fikrlashi.



Shukr esa, insonni hayotdagi ijobiy jihatlariga e'tibor qaratishga va har bir muommodan yaxshilik izlashga va muommodan chiqishni o'rgatadi — bu zamonaviy psixologiyada pozitiv fikrlash deb yuritiladi.

Payg'ambarimiz (s.a.v.) shunday deganlar:

“Mo'min kishining ishi ajablanarlidir! Uning har bir ishi uning uchun hayirdir. Agar unga quvonch keltiradigan narsa bo'lsa — shukr qiladi, bu uning uchun hayirdir; agar unga zarar keltiradigan narsa bo'lsa — sabr qiladi, bu ham uning uchun hayirdir.” (Sahih al-Buxoriy, Kitob ar-Riqoq.)

Bu hadis insonning hayotiy inqirozlarni yengishda psixologik bardoshlilikini oshiruvchi tamoyil sifatida qoraladi.

Stress va inqiroz holatlarini yengishdagi psixologik tamoyillar

Imom al-Buxoriy hadislarida insonni og'ir sinovlardan o'tishda sabr, duo, tavakkul va iymon orqali ruhiy barqarorlikni saqlashga chaqiruvchi g'oyalar mavjud.

Masalan: “Bilgilki, yordam sabr bilan, yengillik qiyinchilik bilan, quvonch g'am bilan birgadir.”

(Sahih al-Buxoriy, Kitob at-Tavakkul.)

Bu fikr psixologiyada “resilience” — ya'ni moslashuvchanlik tamoyiliga mos keladi. Inson hayotdagi sinovlarga bardosh berish, ulardan ijobiy tajriba olish orqali rivojlanadi. Inson hayotida qandaydir muommoga duch kelsa ortidan albatta yengillik kelishini bilishi kerak. Shunda inson tushkunlikka ko'p uchramaydi stress va depressiyani yengishga bu usul yordam beradi. Inson hayotda nimaki bo'lsin yaxshilikni kutib yaxshilikni o'ylab yashash lozim.

Zamonaviy psixologiyada al-Buxoriy g'oyalarining ahamiyati



Bugungi kunda psixoterapiya, stressni boshqarish, emosional intellekt kabi yo‘nalishlarda al-Buxoriy hadislarida ilgari surilgan g‘oyalar muhim metodik asos bo‘la oladi.

Masalan, “g‘azabni tiyish” haqida hadis — kognitiv-behavioral terapiyada emosional o‘zini nazorat qilish mashqlariga teng,

“shukr qilish” haqida hadis esa — pozitiv psixologiyaning minnatdorlik mashqlari bilan uyg‘un.

6 Stressni yengish va ruhiy barqarorlik.

Hadislar insonni qiyinchiliklar oldida ruhiy barqarorlikni saqlashga undaydi.

“Qiyinchilikdan so‘ng albatta yengillik bor.”

Bu nafaqat diniy tasalli, balki psixologik jihatdan motivatsion mexanizm sifatida ham ahamiyatli. Optimistik dunyoqarash va ijobiy fikrlash insonni depressiv holatlardan himoya qiladi.

Xulosa. Imom Buxoriy hadislarida inson ruhiyatiga oid ijtimoiy psixologik g‘oyalar ilgari surilgan. Ular hozirgi zamonaviy psixologiya bilan uygun bo‘lib, shaxsning psixologik va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Hadislar insonni yaxshilikka, halollikka, to‘g‘rilikka, hissiyotlarni boshqarishga, yomon illatlarni qilishdan qaytarishga, sabr, shukr, mehr, iroda va o‘z-o‘zini anglashga yordam beradigan jarayon hisoblanadi.

Bugungi kunda psixologiya fanida bu hadislarning ilmiy tahlili orqali yangi terapiya va tarbiya usullarini ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, Imom al-Buxoriyning asarlari inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini o‘rganishda bebaho manbadir.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Al-Buxoriy, “Al-Jomi‘ as-Sahih”, 9 jildlik to‘plam.
2. Qur’oni Karim.
3. Al-G‘azzoliy, “Ihyou Ulumiddin”, Qohira, 2000.
4. Yusupov O., Islom va psixologiya asoslari, Toshkent, 2018.
5. Karimov S., Ruhiy tarbiya va islomiy qadriyatlar, Toshkent, 2020.
6. Navoiy A., Mahbub ul-qulub, Toshkent nashri, 2016.
7. Bekmurodov M., Psixologiya tarixi, Toshkent, 2019.
8. Ghazzali M., The Alchemy of Happiness, London, 2008.
9. Mavlanov A., Islom falsafasi va inson psixologiyasi, Samarqand, 2021.
10. Qodirov H., Shaxs psixologiyasi asoslari, Toshkent, 2022.